

Date: 3rd March-2026

O‘ZBEK XALQ DOSTONI “ALPOMISH” VA INGLIZ XALQ BALLADALARIDA
ROBIN HOOD OBRAZI: QIYOSIY-TIPOLOGIK TAHLIL

Sadriddinzoda Safiya Shaxobiddinovna

Oriental Universiteti Dotsenti,

SAMDCHTI ingliz tili kafedrası v.b. dotsenti (PhD)

Yangiboyeva Baxtigul

Oriental Universiteti 1- bosqich Magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek xalq og‘zaki ijodining yuksak epik namunasi bo‘lgan “Alpomish” dostoni hamda ingliz folklor an‘analariga mansub Robin Hood haqidagi balladalar qiyosiy-tipologik yondashuv asosida keng ko‘lamda tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi turli madaniy va tarixiy muhitda shakllangan ushbu ikki epik an‘ananing umumiy va o‘ziga xos jihatlarini aniqlash, ularning poetik tuzilishi, mazmun-mohiyati hamda ideologik qatlamlarini ilmiy asosda qiyoslashdan iborat. Tadqiqot obyektlari sifatida o‘zbek epik tafakkurining cho‘qqisi sanalgan Alpomish dostoni hamda ingliz xalq og‘zaki ijodida keng tarqalgan Robin Hood obraziga bag‘ishlangan balladalar tanlangan. Mazkur asarlar turli hudud va davrlarda yuzaga kelgan bo‘lsa-da, ularda aks etgan qahramonlik ideali, ijtimoiy adolat g‘oyasi va xalq manfaatlarini himoya qilish motivlari jihatidan mushtaraklik kuzatiladi.

Аннотация. В данной статье проводится сравнительно-типологический анализ узбекского народного эпоса Алпомиш и английских народных баллад о Робин Гуд. Цель исследования заключается в выявлении художественных механизмов репрезентации архетипа героя, концепта справедливости и социального идеала в эпическом мышлении двух народов.

В работе на основе структурно-семантического, компаративного и дискурсивного методов анализа рассматриваются мифопоэтический генезис образа героя, особенности формульной поэтики, модель эпического хронотопа, а также гендерные мотивы. В результате исследования обосновывается, что в обоих эпических текстах отражены общие архетипические основы нравственные ценности народа, идея социальной справедливости и концепция идеального героя, однако их интерпретация обусловлена национально-культурным контекстом.

Abstract. This article presents a comparative-typological analysis of the Uzbek folk epic Alpomish and the English folk ballads about Robin Hood. The main objective of the research is to identify the artistic mechanisms through which the hero archetype, the concept of justice, and the social ideal are represented in the epic consciousness of the two nations.

Based on structural-semantic, comparative, and discursive methods of analysis, the study examines the mythopoetic genesis of the hero, elements of formulaic poetics, the epic chronotope model, and gender motifs. The findings demonstrate that both epic traditions share common archetypal foundations moral values, the idea of social justice, and the



Date: 3rd March-2026

concept of the ideal hero while their interpretation varies according to the national and cultural context.

Kalit soʻzlar: folklor poetikasi, epik diskurs, arxetip, adolat konsepti, komparativ folklorshunoslik.

Ключевые слова: поэтика фольклора, эпический дискурс, архетип героя, концепт справедливости, формульная поэтика, сравнительное фольклороведение.

Keywords: folklore poetics, epic discourse, hero archetype, concept of justice, formulaic poetics, comparative folklore studies.

Kirish. Folklor jamiyatning tarixiy xotirasini saqlovchi murakkab semiotik tizimdir. Epik janrlar esa xalqning ideal inson haqidagi tasavvurlarini badiiy obrazlar orqali ifodalaydi. “Alpomish” dostoni turkiy epik tafakkurning yirik namunasi sifatida qahramonlik, sadoqat va vatanparvarlik gʻoyalarini mujassamlashtiradi [1, 5-b.].

Ingliz folklor anʼanasidagi Robin Hood balladlari esa ijtimoiy adolat va erkinlik gʻoyalarining badiiy ifodasi sifatida shakllangan [2, Vol. 3, p. 12]. Har ikki epik tizim turli tarixiy-madaniy makonga mansub boʻlsa-da, ularning tipologik umumiyliklari ilmiy jihatdan alohida qiziqish uygʻotadi.

Qahramon arxetipi va uning funksional modeliga koʻra “Alpomish” dostonida bosh qahramon alp tipidagi ideal obraz sifatida tasvirlanadi. Uning tugʻilishi va bolalik davridagi favqulodda kuchi epik mubolagʻa asosida beriladi [1, 18-b.]. Bu holat arxetipik qahramon modelining klassik koʻrinishi hisoblanadi.

V. Propp ertak morfologiyasida qahramonning sinovdan oʻtish modeli universal strukturaga ega ekanini taʼkidlaydi [4, 18-b.]. Alpomishning zindonga tushishi va undan ozod boʻlishi ana shu struktur sxemaning epik variantidir [1, 198-b.].

Robin Hood balladalarida esa qahramon ijtimoiy adolat himoyachisi sifatida shakllanadi. U boylardan olib kambagʻallarga berish orqali tenglik gʻoyasini ilgari suradi [2, Vol. 3, p. 45]. Demak, agar Alpomish urugʻ-qabila birdamligini ifodalasa, Robin Hood individual erkinlik va ijtimoiy qarshilik timsolidir.

Formulaviy poetika va ogʻzaki anʼanaga koʻra ogʻzaki epik ijodning muhim belgilaridan biri formulaviy narrativ strukturaning mavjudligidir. “Alpomish” dostonida takror, parallel sintaktik konstruktsiyalar va tipik syujet modellar keng qoʻllaniladi [1, 27-b.].

Propp nazariyasiga koʻra, epik matnlar funksional elementlarning qatʼiy ketma-ketligiga asoslanadi [4, 25-b.]. Bu struktur barqarorlik ogʻzaki anʼananing eslab qolish mexanizmini taʼminlaydi.

Robin Hood balladalarida ham refren va takrorlar muhim oʻrin tutadi [2, Vol. 1, p. 5]. “Merry men” obrazlari kollektiv birlik konseptini mustahkamlaydi [2, Vol. 3, p. 101].

Adolat konsepti va semantik transformatsiyaga eʼtibor qaratar ekanimiz epik folklorlarda adolat kategoriyasi markaziy semantik yadro hisoblanadi. “Alpomish”da adolat urugʻ-qabila birdamligi va ijtimoiy muvozanat bilan bogʻliq holda talqin qilinadi [1, 256-b.]. Bu jihat K. Imomov tomonidan oʻzbek folklor poetikasining asosiy semantik belgilaridan biri sifatida izohlanadi [3, 64-b.].



Date: 3rd March-2026

Robin Hood balladalarida esa adolat ijtimoiy norozilik shaklida namoyon bo'ladi. Sherif obrazi zulm va hukmron tizim ramzi sifatida beriladi [2, Vol. 3, p. 78]. A. Dundes folklorini ijtimoiy ong va qarshilikning ramziy ifodasi sifatida talqin qiladi [5, p. 78].

Shunday qilib, adolat konsepti universal semantik yadroga ega bo'lsa-da, uning mazmuni tarixiy-madaniy sharoitga ko'ra transformatsiyaga uchraydi.

Gender motivlari va ayol obrazlarini bu ikki xalq og'zaki ijodida ko'rib chiqar ekanmiz epik folklorda ayol obrazi ko'pincha ma'naviy poklik va sadoqat timsoli sifatida tasvirlanadi. "Alpomish"dagi Barchin obrazi qahramonning axloqiy legitimatsiyasini ta'minlaydi [1, 142-b.]

Robin Hood an'anasidagi Maid Marian obrazi ham qahramonning ruhiy tayanchi sifatida talqin qilinadi [2, Vol. 3, p. 110]. Demak, har ikki epik tizimda ayol obrazi passiv emas, balki semantik jihatdan faol rol o'ynaydi.

Xulosa. Qiyosiy-tipologik tahlil shuni ko'rsatdiki, "Alpomish" dostoni va Robin Hood balladalarini turli tarixiy-madaniy makon mahsuli bo'lsa-da, epik tafakkurning universal arxetipik strukturalarini namoyon etadi.

Har ikki folklor tizimida qahramon jamiyatning ideal inson haqidagi tasavvurini ifodalaydi. Biroq Alpomishda bu ideal urug '-qabila birdamligi va barqarorlik bilan bog'liq bo'lsa [1, 256-b.], Robin Hood obrazida ijtimoiy tenglik va qarshilik konsepti ustuvorlik qiladi [2, Vol. 3, p. 45].

Formulaviy poetika esa og'zaki an'ananing kommunikativ mexanizmi sifatida har ikki tizimda ham struktur barqarorlikni ta'minlaydi [4, 25-b.].

Umuman olganda, tadqiqot natijalari epik folklorda arxetipik struktura va milliy o'ziga xoslik dialektik birlikda mavjud ekanini tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alpomish: o'zbek xalq dostoni / nashrga tayyorlovchi H. Zarif. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1998. – 400 b.
2. Child F. J. The English and Scottish Popular Ballads. – Boston: Houghton, Mifflin and Company, 1882–1898. – Vol. 1–5.
3. Imomov K. O'zbek xalq og'zaki poetikasi. – Toshkent: Fan, 2005. – 256 b.
4. Пропп В. Я. Морфология сказки. – Москва: Наука, 1969. – 168 с.
5. Dundes A. Interpreting Folklore. – Bloomington: Indiana University Press, 1980. – 312 p.
6. Xotamovna, M. F. (2025). MADANIYATLARARO KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYADA TARJIMANING MUHIM AHAMIYATI. SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 8(1), 183-187.
7. Kizi, Y. A. O., & Feruzakhon, M. (2024). THE IMAGE OF CHILDHOOD IN 19TH CENTURY ENGLISH AND UZBEK LITERATURE. *Central Asian Journal of Education and Innovation*, 3(6-1), 10-12.
8. Muratxodjayeva, F. X. (2026). INSON RUHIYATINI IFODALOVCHI BIRLIKLARNING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI. *Latin American journal of education*, 6(1), 204-209.



Date: 3rd March-2026

9. Komilovna, X. N. (2024). INGLIZ VA O ‘ZBEK TILLARIDA YAXSHILIK VA YOMONLIKNI IFODALOVCHI MAQOLLAR SEMANTIKASI. *TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G ‘OYALAR*, 1(1), 67-69.

10. Boboyeva, M. X. (2023). PREDLOGLI SO’Z BIRIKMALARINING INGLIZ TILIDAN O ‘ZBEK TILIGA TARJIMASI. *Academic research in educational sciences*, 4(TMA Conference), 408-413.

11. YAQUBOVA, Y. (2025). THE CONCEPT OF STEPMOTHERHOOD AND ITS INFLUENCE ON NEGATIVE CHARACTER. «*ACTA NUUz*», 1(1.1), 352-354.

